



# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-yil 1-son

VOLUME 4 / ISSUE 1 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.1.



**Crossref**  
Content  
Registration

ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

# MUNDARIJA

## 12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ. MA'MURIY HUQUQ. MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- 5 HOSHIMXONOV AHROR MO'MINOVICH**  
O'zbekistonda boshqaruv tizimini takomillashtirish  
istiqbollari
- 14 ERGASHEV IKROM ABDURASULOVICH**  
Soliq nazorati tadbirlarini amalga oshirish orqali soliqlar  
intizomini ta'minlashning nazariy-huquqiy mexanizmlari
- 24 ABDULLAYEVA MAFTUNA MUROT QIZI**  
Huquq va qonun ustuvorligi konstitutsiyaviy-huquqiy  
prinsip sifatida
- 31 MAXMUDOV FIRUZ BAXTIYOR O'G'LI**  
Davlat xaridlari tizimida manfaatlar to'qnashuvining  
oldini olishning tashkiliy-huquqiy jihatlari
- 44 BOKIYEV JAHONGIR NURMATJON O'G'LI**  
Sun'iy intellektning ta'lim olish jarayoniga tatbiq  
etishning ayrim jihatlari

## 12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 53 XAZRATQULOV ODILBEK TURSUNOVICH**  
Raqamli moliyaviy xizmatlar tushunchasi, tarixiy  
rivojlanish va huquqiy asoslari
- 64 АЪЗАМХУЖАЕВ УМИДХОН ШАВКАТ УГЛИ**  
Национальные правовые аспекты реализации  
функций государства при создании и развитии  
международных транспортных коридоров
- 73 NAEEM ALLAHRAKHA**  
Practices of the advertisement legislation of the  
Republic of Uzbekistan

## 12.00.05 – MEHNAT HUQUQI. IJTIMOIY TA'MINOT HUQUQI

- 91 JAVLIYEVA GULLOLA ABDURAHIM QIZI**  
Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat munosabatlari  
transformatsiyasi va notipik mehnat munosabatlari

12.00.06 – TABIIY RESURLAR  
HUQUQI. AGRAR HUQUQ.  
EKOLOGIK HUQUQ

**101 MAXKAMOV DURBEK NEMATOVICH**

Flora qonunchiligini takomillashtirish istiqbollari va zamonaviy tendensiyalar

**110 XAYITOV PANJI BUXAROVICH**

“Yashil” energetikani rivojlantirishning huquqiy asoslari va istiqbollari

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.  
HUQUQBUZARLIKLARNING  
OLDINI OLISH.KRIMINOLOGIYA.  
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI.

**117 KAMALOVA DILDORA GAYRATOVNA**

Jinoyat sodir etishdan ixtiyoriy qaytish va majburan to'xtatish holatlari tahlili

**127 MIRZARAIMOV SARDOR TAXIROVICH**

Bezorilik: jinoiy-huquqiy kvalifikatsion muammolar

12.00.09 – JINOYAT PROTSESSI.  
KRIMINALISTIKA,  
TEZKOR-QIDIRUV HUQUQ VA  
SUD EKSPERTIZASI

**141 RASHIDOV BEXZOD NURBOEVICH**

**ABDUVAHOBOV SHERZODBEK  
ABDUVAHOBOVICH**

Jinoyat ishlarini tergov qilishda mutaxassisning protsessual maqomi

12.00.10 – XALQARO HUQUQ

**149 BEGATOV JASURBEK NUMONJANOVICH**

Mehnat munosabatlarida kamsitishning oldini olish bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasi (AQSh va Yaponiya misolida)

**160 ZAHMATKASH, FIDOIY, SIVILIST OLIM VA  
USTOZ RUZINAZAROV SHUXRAT  
NURALIYEVICHNING YORQIN VA IBRATLI  
HAYOT YO'LI**

DOI: <https://dx.doi.org/10.51788/tsul.jurisprudence.4.1./CVTD4224>  
UDC: 349.6(045)(575.1)

## “YASHIL” ENERGETIKANI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA ISTIQBOLLARI

**Xayitov Panji Buxarovich,**

Toshkent davlat yuridik universiteti

mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0005-9482-2260,

e-mail: pxayitov7@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada “yashil” energetikani rivojlantirishning huquqiy asoslari, kelajak istiqbollari, ekologik-huquqiy ta’minlash masalalarining milliy va xalqaro konsepsiyasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish va ularni tahlil qilish bo’yicha fikrlar bildirilgan. Shuningdek, ekologiya huquqi nazariyasi, “yashil” energetikani rivojlantirishning huquqiy asoslari va kelajak istiqbollari tizimini yanada rivojlantirish bilan bog’liq eng muhim masalalar tahlil qilindi. “Yashil” energetikani rivojlantirishning huquqiy asoslari va kelajak istiqbollari energiya huquqi manbalarini tartibga solish muammolari, tabiiy resurslar tizimidagi energiya huquqining milliy va xalqaro ahamiyati, ilmiy tadqiqotlar doirasida undan foydalanish huquqining kelib chiqishi nuqtayi nazaridan o’rganildi. Energetika sohasida “yashil” energetikani rivojlantirishning huquqiy asoslari va kelajak istiqbollari ma’lum shakl va usullarda amalga oshiriladi. Bundan tashqari, maqolada “yashil” energetikani rivojlantirishning huquqiy asoslari va kelajak istiqbollari bilan bog’liq huquqiy munosabatlar, ularni tartibga solishga qaratilgan normalarning mazmuni, ularni amalda qo’llashning mohiyati va muammolari, milliy va xalqaro energiya iste’moli sohasidagi boshqaruv tizimi, “yashil” energetikani rivojlantirishning huquqiy asoslari, kelajak istiqbollari va boshqaruv organlarining vakolatlari tahlil qilingan.

**Kalit so’zlar:** “yashil” energiya, ekologik xavfsizlik, rivojlanish strategiyasi, energiya xavfsizligi, issiqlik energiyasi, qonun, global ekologik muammolar.

### ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНОЙ ЭНЕРГЕТИКИ

**Хайитов Панжи Бухарович,**

самостоятельный соискатель кафедры

Ташкентского государственного

юридического университета

**Аннотация.** В данной статье были высказаны мнения по совершенствованию и анализу нормативно-правовых документов, касающихся правовой основы и перспектив развития зелёной энергетики, а также национальной и международной концепции и в целом системы эколого-правовых вопросов. Также были проанализированы важнейшие направления, связанные с дальнейшим развитием теории экологического права, правовой основой развития и перспектив зелёной энергетики. В рамках научного исследования правовые основы развития зелёной энергетики и перспективы её развития были изучены с точки зрения эколого-правового обеспечения, проблемы регулирования источников энергии, национального и международного значения права на энергию в системе природных ресурсов, происхождения права на её использование. В сфере энергетики правовые основы развития зелёной энергетики и перспективы реализуются в определённых формах и методах. Кроме того, в статье описаны содержание норм, направленных на регулирование зелёной энергетики, сущность и проблемы

их практического применения, понятия национального и международного энергопотребления, система управления в сфере и полномочия органов управления.

**Ключевые слова:** зелёная энергия, экологическая безопасность, стратегия развития, энергетическая безопасность, тепловая энергия, право, глобальные экологические проблемы.

## THE CURRENT FOUNDATIONS AND FUTURE PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF “GREEN” ENERGY

**Khaitov Panji Bukharovich,**  
Independent Researcher of  
Tashkent State University of Law

**Abstract.** In this article, opinions were expressed on the improvement and analysis of regulatory legal documents related to the legal basis and future prospects of the development of green energy and the national and international concept and system of environmental and legal issues. Also, the most important issues related to the further development of the theory of ecological law, the legal basis of the development of green energy, and the future prospects of the system were analyzed. The legal foundations of green energy development and future prospects, issues of ecological and legal provision, problems of regulation of sources of energy rights, the national and international importance of the right to energy in the system of natural resources, and the origin of the right to use it in the framework of scientific research were studied. In the field of energy, the legal basis of the development of green energy and future prospects are implemented in certain forms and methods. In addition, the article describes the legal foundations of the development of “green” energy and legal relations related to future prospects, the content of norms aimed at their regulation, the essence and problems of their practical application, the management system in the field of national and international energy consumption, “green” energy, the legal basis of development, future prospects, and the powers of management bodies.

**Keywords:** green energy, environmental security, development strategy, energy security, thermal energy, law, global environmental issues.

### Kirish

Bugun dunyo hamjamiyati iqlim o'zgarishlarini insonlar oldida turgan eng muhim masalalardan biri ekanligini aytmoqda. Iqlim o'zgarishlarining oldini olish hamda unga moslashish yo'lidagi muhim qadamlardan biri – bu energetikani yashillashtirishdan iboratligi mutaxassislar tomonidan ta'kidlanmoqda. Bu borada yurtimizda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, energiyaga oid bir qator qonun hujjatlar qabul qilindi. “Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida”gi va “Gidrometeorologiya faoliyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari qabul qilindi.

Shu bois O'zbekistonning geografik joylashuvi, yiliga quyoshli kunlar yetarlicha ko'p bo'lishi va radiatsiya quvvati yuqori bo'lgan-

ligi hisobga olinsa, quyosh energiyasi mam-lakatimiz uchun hozir ham, kelajakda ham elektr energiyasi ishlab chiqarishning asosiy manbayi hisoblanadi.

Energiya resurslari energetika sohasida sanoat va maishiy foydalanish uchun mavjud bo'lgan har xil turdagi energiya manbalari hisoblanadi.

Energiya resurslari quyidagilarga bo'linadi:

- qayta tiklanmaydigan;
- qayta tiklanadigan.

Kelib chiqishiga ko'ra energiya resurslari yoqilg'ining har xil turlariga (qayta tiklanadigan va qayta tiklanmaydigan), turli tabiiy jarayonlar energiyasiga va yadro energiyasiga bo'linadi. Ikkilamchi energiya resurslarining maxsus toifasi ham mavjud (yoqilg'i, issiqlik, shamol va ortiqcha bosim). Inson har xil energiya turlaridan foydalanadi: issiqlik,

elektr, yadro, kimyoviy, mexanik. Energiya resurslari, birinchi navbatda, elektr energiyasi ishlab chiqarish va yoqilg'i sanoatida qo'llanadi.

Dunyoning mavjud energiya resurslarini baholash barqaror rivojlanish yondashuvida muhim ahamiyatga ega. Qayta tiklanmaydigan energiya manbalariga barcha turdagi qazib olinadigan yoqilg'ilar kiradi: neft, tabiiy gaz, qattiq va qo'ng'ir ko'mir, neft slanetsi va torf. Ko'mir dunyoning qazib olinadigan yoqilg'i zaxiralarida yetakchi rol o'ynaydi (odatiy yoqilg'i bo'yicha 60 %gacha), neft va gaz taxminan 27 %ni tashkil qiladi. Zaxiralarni baholashda tasdiqlangan zaxiralar va yakuniy (taxmin qilingan) zaxiralar ajratiladi. 2010-yilda insoniyat tomonidan yer yuzida ishlab chiqarilgan barcha energiyaning taxminan 91 %i har xil turdagi yoqilg'larni yoqish orqali olingan bo'lsa, asosiy ulushi qayta tiklanmaydigan yoqilg'larga to'g'ri keldi [1].

Amerikaning EIA (Energy Information Administration) agentligining prognozlariga ko'ra [2], 2040-yilga kelib, qazib olinadigan yoqilg'ining ulushi atigi 78 %gacha kamayadi, energiya iste'moli esa 2010-yildan 2040-yilgacha bo'lgan davrda 56 %ga oshadi.

### **Material va metodlar**

Maqolada ilmiy tadqiq etishning qiyoсий-huquqiy tahlil, xalqaro hujjatlar tahlili, shuningdek, umumilmiy metodlar – kuzatish, umumlashtirish, induksiya, deduksiya hamda analiz-sintez metodlaridan foydalanildi.

### **Tadqiqot natijalari**

Qayta tiklanmaydigan energiya manbalarining kamayishi, atrof-muhitning ifloslanishi va global isish kabi zamonaviy sivilizatsiyaning global muammolari kundan kun ortib bormoqda.

Energetika tarmog'ining asosini qazib olinadigan yoqilg'ining kimyoviy energiyasidan foydalanadigan issiqlik elektr stansiyalari (IES) tashkil etadi. 2010-yilda qazib olinadigan yoqilg'i issiqlik elektr stansiyalari dunyodagi barcha elektr stansiyalari

ishlab chiqarishining 67 %dan ortig'ini ta'minlagan [3].

Qayta tiklanadigan energiya manbalari ("Yashil energiya" deb ataladi) – bu energiya manbalari bo'lib xizmat qila oladigan va qayta tiklanadigan resurslar, ya'ni ular tabiiy ravishda to'ldiriladigan va inson o'lchovida tugamaydigan tabiiy resurslardir. Qayta tiklanadigan organik resurslar va bir qator tabiiy jarayonlar bunday resurslar sifatida xizmat qilishi mumkin.

2010-yilda global energiya iste'moli-ning qariyb 13 %i qayta tiklanadigan energiya manbalari (2,3 %i gidroenergetika, 10 %i bioyoqilg'i va chiqindilar, 1 %i muqobil energiya manbalari) va barcha elektr energiyasining qariyb 20 %i (16 %i gidroenergetika, 3,7 %i bioyoqilg'i va muqobil energiya manbalari), Xalqaro energiya agentligi (IEA) ma'lumotlariga ko'ra, joriy yil uchun AQShning EIA hisob-kitoblariga ko'ra, global energiya iste'molida "Yashil energiya" ulushi 11 %ni tashkil etdi va 2040-yilga kelib yana 4 %ga o'sishi kutilmoqda. REN21 tahliliy markazi ma'lumotlariga ko'ra, 2010-yilda qayta tiklanadigan manbalarining elektr energiyasi ishlab chiqarishdagi ulushi 15 % gidroenergetika, 5,3 % bioyoqilg'i va muqobil energiya manbalaridan tashkil topgan [4].

Rivojlangan mamlakatlarda quyosh energiyasidan (QE) foydalanish bo'yicha olib borilgan ishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ichki energiya ehtiyojlarini ta'minlash uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishda ular energiya manbalaridan, jumladan, quyosh energiyasidan foydalanish asosida iste'mol qilinadigan elektr energiyasining 50 % yoki undan ko'prog'ini ishlab chiqarish orqali anchagina muvaffaqiyatlar- ga erishgan. Ta'kidlash joizki, mamlakatimiz quyosh batareyalaridan foydalanishda sezilarli darajada orqada qolmoqda.

Yer yuzidagi ko'plab davlatlarda energiya iste'moli masalalari bir necha yillardan beri energiya samaradorligini oshirish bo'yicha davlat siyosatini amalga oshirib kelmoqda.

Shvetsiyada qazib olinadigan yoqilg'iga bog'liqlik sezilarli darajada kamaydi, undan energiya ishlab chiqarish 80 %dan 37 %gacha kamaydi, energiya tarkibidagi bioyoqilg' ulushi esa 32 %gacha ko'tarildi [5].

Germaniyada quyosh panellarini o'rnatish elektr energiyasi iste'mol narxlarining ko'tarilishi hisobiga davlat subsidiyalari bilan qo'llab-quvvatlanadi. Shu bilan birga, "yashil" elektr energiyasini tarmoqqa sotish mumkin. Maishiy ehtiyojlar uchun zarur bo'lgan issiq suvning 50 %dan ortig'i quyosh kollektorlarida isitiladi, ortiqcha suv isitish tizimiga yo'naltiriladi [6].

Fransiyada energiya tejovchi texnologiyalardan foydalanganlik uchun soliq imtiyozlari dasturi amal qiladi. Uy-joylarni modernizatsiya qilishda kredit, termoregulyatsiya tizimlarini o'rnatish, isitish tizimini modernizatsiya qilish va muqobil energiya manbalari, ya'ni bioyoqilg'i, quyosh va shamol energiyasidan foydalanish xarajalarining 50 %igacha qismini qoplash huquqi beriladi [7].

Daniyada energiya tejamkor uylar karbonat angidrid chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan. Iqlim, energetika va qurilish vazirligi tashkil etildi, bu mamlakatning "yashil" qurilish mavzusiga kompleks yondashuvini namoyish etadi, 2050-yilga kelib qazilma yoqilg'idan mustaqil bo'lish maqsadi e'lon qilindi.

Qiziqarli ma'lumot: 2000-yillarning boshidan Daniya yalpi ichki mahsuloti 80 %ga oshdi, CO emissiyasi esa avvalgi darajada saqlanib qoldi [8].

Janubiy Koreyada "Energiyadan foydalanish to'g'risida"gi Qonun qabul qilingandan so'ng ommaviy qurilishda energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish yo'nalishi qabul qilindi, qonunchilikda esa bu sohaga investitsiyalarni imtiyozli soliqqa tortish ko'zda tutilgan [9].

Qozog'istonning uy-joy sektorida binolarning qariyb 70 %i zamonaviy talablarga javob bermaydigan issiqlik ko'rsatkichlariga

ega. Binolarda issiqlik energiyasini iste'mol qilish yiliga har kvadrat metr uchun taxminan 270 kVtni tashkil qiladi, bu Yevropa davlatlarining o'rtacha ko'rsatkichidan deyarli 3 baravar yuqori [10].

O'zbekistonda energiya tejamkor binolarda energiya sarfini kamaytirish konstruktiv elementlar va muhandislik ta'minoti tizimlarini mos ravishda takomillashtirish, shu jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari-dan foydalanish texnologiyalari, quyosh panellari, kollektorlar va boshqalarni qo'llash hisobiga amalga oshirilmoqda. Binolarni qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha loyihalarning amalga oshirilishi hududlardagi ekologik vaziyatga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Qayta tiklanuvchi energetika sohasi rivoji davlatning geografik joylashuvi, tabiiy resurslariga bog'liq.

Har qanday biznes uchun barqaror va uzluksiz energiya resurslari ta'minoti juda zarur. Elektr energiyasi ta'minoti mukammal holatga keltirilmas ekan, O'zbekistonning olis hududlari investorlar uchun moliyaviy jihatdan xatarli bo'lib qolaveradi. Bejiz elektr energiya ta'minoti Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro "Ease of Doing Business" indeksini belgilovchi ko'rsatkichlardan biri etib tanlanmagan [11]. Qayta tiklanuvchi energetika sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi ayrim qonunlar mavjud, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi Qonuni shular jumlasidandir.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 24-maqsadida, Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan doimiy ta'minlash hamda "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 %ga oshirish maqsadida 6 ta aniq vazifalarni amalga oshirish belgilab qo'yilgan.

Yashil energetikaga o'tish yo'lidagi muhim qadamlardan yana biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi

“2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bo‘ldi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Qarorda 2023-yilda umumiy quvvati 4300 MVt bo‘lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini ishga tushirish orqali qo‘shimcha 5 mlrd kilovatt soat elektr energiyasi ishlab chiqarish va buning natijasida 4,8 mlrd metr kub tabiiy gazni iqtisod qilish belgilangan. Ushbu maqsadlarga jami 15,4 mlrd AQSh dollari miqdoridagi mablag‘larni yo‘naltirish ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, 2023-yilda 20 mingta ijtimoiy soha obyektlari va davlat idoralari-da hamda kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o‘rnatish, 11 ming nafar tadbirkorning bino va inshootlarida quyosh panellari o‘rnatish hamda kichik fotoelektr stansiyalarini barpo etish ishlari amalga oshirilmoqda.

Mazkur qarorda belgilanganidek, 2023-yil 1-apreldan boshlab respublika hududlarida aholi xonadonlariga kichik quvvatli quyosh panellarini o‘rnatishni rag‘batlantirish bo‘yicha Quyoshli xonadonlar dasturi amalga oshirilmoqda.

### **Tadqiqot natijalari tahlili**

Yuqorida keltirilgan huquqiy hujjatlar-ga asosan, energetika sohasini rivojlantirish bo‘yicha davlatimiz dasturlari, yirik tadbirkorlik loyihalari amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fizika-Quyosh” ilmiy ishlab chiqarish birlashmasining Fizika-texnika instituti ilmiy ishlari mazkur sohani rivojlantirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqishga xizmat qilm-oqda.

2028-yilga borib, qayta tiklanadigan energiya manbalarining global o‘shishining 95 %i quyosh va shamol energiyasi ishlab chiqarish hissasiga to‘g‘ri keladi. Har yili qo‘shiladigan quyosh va shamol quvvatlari hajmi 2022-yilga nisbatan ikki baravardan ko‘proq oshdi va qariyb 710 GVtga

yetdi. 2023-yilda yangi quyosh va shamol quvvatlarining 96 %i yangi ko‘mir va gaz elektr stansiyalariga qaraganda ishlab chiqarish xarajatlari pastligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, 2023-yilda quyosh panel-larining narxi yillik hisobda qariyb 50 %ga pasaygan va ularning dunyoda ishlab chiqarish hajmi 2021-yilga nisbatan uch barobar-ga oshgan. 2028-yil oxiriga qadar dunyoda yangi qayta tiklanadigan energiya quvvat-larining 60 %igacha bo‘lgan ulushi Xitoyga to‘g‘ri kelishi kutilmoqda. 2023-yil dekabr oyida BMTning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha sammitida (COP28 [12]) 120 dan ortiq dav-lat qazib olinadigan yoqilg‘idan foydalanish-ni kamaytirish uchun 2030-yilga kelib dun-yoning qayta tiklanadigan energiya imkoni-yatlarini uch barobar oshirishga kelishib oldi [13].

Amaldagi normativ-huquqiy baza va tex-nik infratuzilmalar esa ushbu jarayonga tayyor emas. Turkiyada 60 foiz, Koreyada 20 % elektr energiyasi xususiy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan bir vaqt-da, bizda hanuzgacha xususiy korxonalar-ni tizimga qabul qilish masalasi hal etilma-gan. Garchi amaldagi qonunlarimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalari ishlab chiqaruvchilari hamda joriy etuvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun imtiyoz hamda preferensiyalar ko‘zda tutilgan bo‘l-sa-da, amalda ushbu imtiyozlar iqtisodiy ji-hatdan maqbul bo‘lmaganligi tufayli ulardan foydalanilmaydi. Demak, mazkur imtiyoz va preferensiyalar xalqaro amaliyotga mos tarzda qayta ko‘rib chiqilishi lozim bo‘ladi [14].

Bu borada 2019-yil 22-avgust kuni imzo-langan “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi №PQ-4422-sonli qaroriga mu-rojaat qilamiz. Ushbu qarorda quyidagilar belgilangan:

– qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qurilmalarini ishlab chiqaruvchilar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan e'tiboran, besh yil muddatga soliqning barcha turlarini to'lashdan;

– qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini (nominal quvvati 0,1 MVt va undan ortiq bo'lgan) o'rnatganlik uchun ular foydalanishga topshirilgan paytdan e'tiboran, 10 yil muddatga mol-mulk solig'ini hamda ushbu qurilmalar bilan band bo'lgan uchastkalar bo'yicha yer solig'ini to'lashdan;

– ishlab turgan energetika resurslari tarmoqlaridan to'liq uzib qo'yilgan yashash uchun mo'ljallangan joylarda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanuvchi shaxslar qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanilgan oydan e'tiboran, 3 yil muddatga yer solig'ini to'lashdan ozod etilishi nazarda tutilgan.

Shuningdek, quyidagi kompensatsiya va imtiyozlarni taqdim etish ham belgilangan:

a) muqobil energiya manbalarini joriy qilgan jismoniy shaxslarga quyosh fotoelektrik stansiyalari, quyosh suv isitkichlari, shuningdek, energiya samarador gaz goryelkali qurilmalarni sotib olish xarajatlarining 30 %i miqdorida, biroq:

quyosh fotoelektrik stansiyalari uchun – 3 mln so'mdan;

quyosh suv isitkichlar uchun – 1,5 mln so'mdan;

gaz-gorelkali qurilmalar uchun – 200 ming so'mdan

oshmaydigan miqdorda kompensatsiyalar.

b) muqobil energiya manbalarini joriy qilishda imtiyozli kreditlar:

jismoniy shaxslarga 500 million so'mdan oshmaydigan kreditlar bo'yicha Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasidan oshgan qismida, biroq 8 %li punktdan ko'p bo'lmagan miqdorda;

yuridik shaxslarga 5 mlrd so'mdan oshmaydigan kreditlar bo'yicha Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasidan oshgan qismida, biroq 5 %li punktdan ko'p bo'lmagan miqdorda.

### **Xulosalar**

Quyosh energetikasi bugun ishlab chiqarilgan energiya narxi bo'yicha an'anaviy energetika bilan raqobatbardosh bo'lib ulgurdi.

O'zbekiston Respublikasi o'z infrastrukturasi yangilaganda muqobil energetika, xususan, quyosh elektrostansiyalarini ham joriy qilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Quyosh fotopanellarini jismoniy shaxslar o'rnatsa, qator imtiyozlar mavjud va byurokratik to'siqlar minimal darajaga tushirilgan. Ammo quyosh sistemalarining birinchi investitsiya miqdori kattaligi bois, jismoniy shaxslar ushbu texnologiyani joriy qilishi uchun imkoniyatlar pasaymoqda.

Mutaxassislarning kamligi ushbu texnologiyalar yetarlicha yoki to'g'ri joriy etilmayotganiga sabab bo'lmoqda va bu, o'z navbatida, quyosh fotoelektrik tizimlarining to'liq imkoniyatidan foydalanmaslikka yoki noto'g'ri foydalanishga olib kelmoqda.

Muqobil energetika, xususan, quyosh fotoelektrik tizimlarini joriy etish energotejamkorlik madaniyati shakllanishiga va maishiy hayotda tejamkor texnika-texnologiyalar ommalashuviga olib keladi [15].

Albatta, "Elektr energiya"ni ishlab chiqarish katta mablag' talab qilishadi. Bu borada loyihalarni amalga oshirish uchun ishbilarmon investorlarni jalb etish, elektr energiyasiga huquqiy jihatdan jozibador tariflarni joriy qilish maqsadga muvofiqdir.

Xalqaro tadbirkorlar bilan hamkorlikda yaratiladigan muqobil energiya manbalari hududlar va aholini doimiy elektr energiyasi bilan ta'minlash imkonini yaratadi.

## REFERENCES

1. Baxodirkhonov M.K., Isamov S.B., Shoabdurakhimova M.M. Sovremennyye solnechnyye elektrostantsii v mire [Modern solar power plants in the world]. Tashkent, 2020, 370 p.
2. US agency EIA forecasts (Energy Information Administration). Gazeta.uz. 2024.
3. Wikipedia - the free encyclopedia. Available at: <https://ru.wikipedia.org>
4. Chemist's Handbook 21. Chemistry and Chemical Technology. Available at: <https://chem21.info>
5. Sweden: use of biofuels. Available at: <http://www.drevesina.com/materials.htm/a5/b192/>
6. Green Towers Deutsche Bank. Available at: [http://zvt.abok.ru/articles/38/Zelyonie\\_bashni\\_Doiche\\_Banka](http://zvt.abok.ru/articles/38/Zelyonie_bashni_Doiche_Banka)
7. Loan online. Available at: <https://kredzaim.ru/mortgage-loans/energoberezhenie-v-ssha-evrope-i-rossii-razlichie-v-podhodah-k/>
8. Energy efficient houses in Denmark. Available at: [http://zvt.abok.ru/articles/171/Energoeffektivnie\\_doma\\_Danii](http://zvt.abok.ru/articles/171/Energoeffektivnie_doma_Danii)
9. Experience implementation of energy saving policy by the Republic of Korea. Available at: <http://teplokot.ru/stat/2724-opyt-realizacii-politiki-energoberezheniya-respublikoy-koreya.html>
10. Nosirov T., Vasikov A., Pozichanyuk P. O'zbekistonda qayta tiklanadigan energetikani rivojlantirish istiqbollari [Prospects for the development of renewable energy in Uzbekistan]. Tashkent, 2007.
11. Small solar power plant: a green energy promotion, training and testing field, a grateful gift of the korea energy agency. Available at: <https://www.uzbekistonmet.uz/oz/lists/view/786>
12. At the UN Climate Change Summit (COP28). Available at: <https://www.gazeta.uz/oz/2023/12/01/cop28/>
13. "Green energy" capacity increased by 50% worldwide in 2023. Available at: <https://www.gazeta.uz/oz/2024/01/12/renewable-capacity/>
14. Current state of energy and development prospects. Available at: <https://www.toshet.uz/uz/content/faoliyat/istiqbollar/>
15. Problems in the development of solar energy. Available at: <https://www.uzanalytics.com/iqtisodi%D0%B5t/8596/zbekistan> (accessed 16.12.2020).

# YURISPRUDENSIYA

## HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-YIL 1-SON

VOLUME 4 / ISSUE 1 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.1.

**BOSH MUHARRIR:**

**Xodjayev Baxshillo Kamolovich**

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, professor, yuridik fanlar doktori

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**J. Allayorov**

Ilmiy boshqarma boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Mas'ul muharrir:** N. Ramazonov

**Muharrirlar:** Sh. Jahonov, Y. Mahmudov, M. Sharifova,  
Y. Yarmolik, E. Mustafayev

**Musahhih:** K. Abduvaliyeva

**Texnik muharrirlar:** U. Sapayev, D. Rajapov

**Tahririyat manzili:**

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

**Tel.:** (0371) 233-66-36, 233-41-09.

**Faks:** (0371) 233-37-48.

**Veb-sayt:** www.tsul.uz

**E-mail:** lawjournal@tsul.uz

**Obuna indeksi:** 1387.

Jurnal 26.03.2024-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli bosma tabog'i 19,3.

Adadi: 100. Buyurtma raqami: 37.

TDYU tipografiyasida chop etildi.